



THE SECURITY ARCHITECTURE OF CENTRAL ASIA: FORMATION AND EVOLUTION

Elyor Zoirovich Makhammadiyev
Lecturer, Department of Political Science
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: regional security, Central Asia, geopolitics, threats, collective security, sustainable development.

Received: 13.06.26

Accepted: 14.06.26

Published: 15.06.26

Abstract: This article examines the theoretical foundations of the concept of regional security, its role in the contemporary system of international relations, and the current challenges of ensuring security in the Central Asian region. The study analyzes the impact of traditional and non-traditional security threats, geopolitical competition, transnational crime, terrorism, extremism, environmental issues, and water resource-related challenges on regional stability. In addition, the role of regional cooperation institutions and international organizations in strengthening security is assessed from a scientific perspective. The findings demonstrate that an effective model of regional security should be based on interstate trust, political dialogue, economic integration, and the coordinated functioning of collective security mechanisms.

MARKAZIY OSIYO XAVFSIZLIK ARXITEKTURASI: SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH

Elyor Zoirovich Maxammadiyev
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Siyosiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: mintaqaviy xavfsizlik, Markaziy Osiyo, geosiyosat, tahdidlar, kollektiv xavfsizlik, barqaror rivojlanish.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqaviy xavfsizlik tushunchasining nazariy asoslari, uning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi oʻrni hamda Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni taʼminlashning dolzarb muammolari tahlil qilinadi. Tadqiqotda anʼanaviy va noanʼanaviy xavfsizlik tahdidlari, geosiyosiy raqobat, transmilliy jinoyatchilik, terrorizm, ekstremizm, ekologik muammolar va suv resurslari bilan bogʻliq masalalarning mintaqaviy barqarorlikka taʼsiri oʻrganilgan. Shuningdek, mintaqaviy hamkorlik institutlari va xalqaro tashkilotlarning xavfsizlikni mustahkamlashdagi roli ilmiy jihatdan baholangan. Tadqiqot natijalariga koʻra, mintaqaviy xavfsizlikni taʼminlashning samarali modeli davlatlararo ishonch, siyosiy muloqot, iqtisodiy integratsiya va kollektiv xavfsizlik mexanizmlarining uygʻunlashuviga asoslanishi lozimligi asoslab berilgan.

АРХИТЕКТУРА РЕГИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: ФОРМИРОВАНИЕ И ЭВОЛЮЦИЯ

Элиёр Зоирович Махаммадиев

Преподаватель кафедры политических наук

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: региональная безопасность, Центральная Азия, геополитика, угрозы, коллективная безопасность, устойчивое развитие.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические основы концепции региональной безопасности, её место в современной системе международных отношений, а также актуальные проблемы обеспечения безопасности в Центральноазиатском регионе. В исследовании рассматривается влияние традиционных и нетрадиционных угроз безопасности, геополитической конкуренции, транснациональной преступности, терроризма, экстремизма, экологических проблем и вопросов, связанных с водными ресурсами, на региональную стабильность. Кроме того, с научной точки зрения оценивается роль институтов регионального сотрудничества

и международных организаций в укреплении безопасности. По результатам исследования обосновано, что эффективная модель обеспечения региональной безопасности должна основываться на взаимном доверии между государствами, политическом диалоге, экономической интеграции и согласованном функционировании механизмов коллективной безопасности.

Kirish. XXI asrda xalqaro xavfsizlik tizimi tubdan o'zgarib, an'anaviy harbiy tahdidlar bilan bir qatorda noan'anaviy xavfsizlik muammolari ham global va mintaqaviy darajada dolzarb masalaga aylandi. Terrorizm, diniy ekstremizm, noqonuniy migratsiya, kiberxavfsizlik, ekologik inqirozlar va transmilliy jinoyatchilik kabi tahdidlar davlatlarning milliy xavfsizligi bilan birga mintaqaviy barqarorlikka ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli zamonaviy xalqaro munosabatlarda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash masalasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi Yevroosiyoning strategik markazida joylashgan bo'lib, geosiyosiy manfaatlar to'qnashuvi, tabiiy resurslarga boyligi va muhim transport-kommunikatsiya yo'llari mavjudligi bilan ajralib turadi. Mintaqaning geografik joylashuvi uning xavfsizlik tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatib, turli ichki va tashqi tahdidlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Shu nuqtai nazardan, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mintaqaviy xavfsizlik nazariyasi xalqaro munosabatlar fanining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tushuncha ma'lum geografik hududdagi davlatlarning siyosiy, iqtisodiy va harbiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan mexanizmlar majmuasini anglatadi. Mintaqaviy xavfsizlik nazariyasining rivojlanishida ingliz olimi Barry Buzan tomonidan ishlab chiqilgan "Mintaqaviy xavfsizlik komplekslari nazariyasi" alohida o'rin tutadi. Mazkur nazariyaga ko'ra, geografik jihatdan yaqin joylashgan davlatlarning xavfsizlik muammolari o'zaro bog'liq bo'lib, bir davlatdagi xavfsizlik holati qo'shni davlatlarga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu asnoda ta'kidlash joizki, jahon tarixida davlatlar xavfsizligining ta'minlanishi bo'yicha Ahomaniylar, Aleksandr Makedoniy, Rim imperiyalari, Vizantiya, Turk hoqonligi, Arab xalifaligi, Mo'g'ullar, Usmoniylar, Ispaniya va Buyuk Britaniya imperiyalari, Somoniylar davlati, Xorazmshohlar davlati, Amir Temur saltanati, Podsho Rossiyasi, sobiq SSSR va AQSh kabi buyuk imperiyalarda boy meros mavjud bo'lgan. Dunyodagi globallashuv sharoitida davlatlarda xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari samaradorligini oshirishga oid masalalarga e'tibor yanada kuchaydi. Bu borada

davlatlar qurolli kuchlarini zamonaviy qurol-yarog‘, harbiy texnikalar bilan butlash hamda harbiy xizmatchilar ongida yuqori bilim, harbiy-amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi bilan birga, o‘z milliy tarixini chuqur bilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlar tarixiy tajribalar va azaliy an‘analarga tayangan holda siyosat yuritmoqda. Shu boisdan tarixda qudratli imperiya barpo etgan, uni muvaffaqiyatli boshqargan hukmdorlarning davlat xavfsizligini ta‘minlashdagi tajribalarini tadqiq qilish bugungi global dunyoda dolzarb masalalardan bo‘lib qolmoqda.

Binobarin, 1991-yilda Sovet Ittifoqining parchalanishi Markaziy Osiyo mintaqasida yangi geosiyosiy realliklarning vujudga kelishiga va xavfsizlik tizimining tubdan qayta shakllanishiga sabab bo‘ldi. Sobiq Ittifoq doirasida markazlashgan boshqaruv hamda yagona harbiy-siyosiy xavfsizlik mexanizmlarining barham topishi natijasida mintaqada institutsional bo‘shliq yuzaga keldi. Bu holat yangi mustaqil davlatlar zimmasiga milliy xavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqish, mudofaa tizimlarini tashkil etish va davlat suverenitetini ta‘minlash kabi murakkab vazifalarni yukladi. Shu sababli mintaqaviy xavfsizlik tizimining dastlabki shakllanish bosqichi davlat qurilishi jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq holda kechdi. Xavfsizlik muhitining murakkablashuviga ta‘sir etgan muhim omillardan biri sovet davrida ma‘muriy-hududiy tamoyillar asosida chizilgan chegaralarning xalqaro-huquqiy jihatdan to‘liq rasmiylashtirilmaganligi bilan bog‘liq edi. Delimitatsiya va demarkatsiya jarayonlarining yakunlanmaganligi ayrim hududlarda chegaraviy nizolar, etnik ziddiyatlar va transchegaraviy resurslardan foydalanish bilan bog‘liq kelishmovchiliklarni yuzaga keltirdi. Natijada mintaqaviy davlatlari xavfsizlik siyosatida hududiy yaxlitlik va chegaralar daxlsizligini ta‘minlash ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi.

Bundan tashqari, mustaqillikning ilk yillarida kuzatilgan iqtisodiy inqiroz, ishlab chiqarish aloqalarining uzilishi, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik va aholi turmush darajasining pasayishi xavfsizlikka nisbatan noan‘anaviy tahdidlarning kuchayishiga zamin yaratdi. Ushbu omillar radikal mafkuralarning tarqalishi, noqonuniy migratsiya, uyushgan jinoyatchilik va transmilliy xavfsizlik tahdidlarining faollashuviga sabab bo‘ldi. Shu nuqtai nazardan, mintaqaviy xavfsizlik masalalari faqat harbiy-siyosiy jihatlar bilan cheklanib qolmay, balki iqtisodiy, ijtimoiy va gumanitar omillar bilan ham uzviy bog‘liq ekanligi namoyon bo‘ldi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi siyosiy orientatsiyalari va geosiyosiy ustuvorliklaridagi tafovutlar ham yagona mintaqaviy xavfsizlik makonining shakllanish jarayoniga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Ayrim davlatlar Rossiya boshchiligidagi integratsion va xavfsizlik tuzilmalarida faol ishtirok etishni afzal ko‘rgan bo‘lsa, boshqalari ko‘p vektorli tashqi siyosat yuritish hamda G‘arb davlatlari, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi va xalqaro tashkilotlar bilan

hamkorlikni kengaytirishga intildilar. Mazkur geosiyosiy yondashuvlarning xilma-xilligi mintaqaviy xavfsizlik masalalarida yagona strategik pozitsiyani shakllantirishni murakkablashtirdi hamda hamkorlik mexanizmlarining institutsional rivojlanish sur'atlariga ta'sir ko'rsatdi. Natijada, Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik tizimining shakllanishi postsovet transformatsiyasi, davlat qurilishi jarayonlari, chegaraviy muammolar, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik hamda geosiyosiy manfaatlar raqobati kabi ko'p qirrali tarixiy omillar ta'sirida kechgan murakkab va ko'p bosqichli jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur omillar keyingi davrlarda mintaqaviy xavfsizlik institutlari va hamkorlik mexanizmlarining rivojlanishi uchun fundamental asos vazifasini bajardi.

1990-yillar Markaziy Osiyo xavfsizlik muhitining keskin murakkablashuvi hamda transmilliy tahdidlarning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Ushbu davrda mintaqaviy xavfsizlikka eng katta tahdid manbalaridan biri sifatida Afg'onistonda davom etgan qurolli mojarolar, siyosiy beqarorlik va davlat boshqaruvi institutlarining zaiflashuvi namoyon bo'ldi. Xususan, 1996-yilda "Tolibon" harakatining Afg'onistonda hokimiyat tepasiga kelishi Markaziy Osiyo davlatlari uchun xavfsizlikka doir yangi geosiyosiy va harbiy-siyosiy xatarlarni yuzaga keltirdi. Natijada mintaqada davlatlari o'z milliy xavfsizlik strategiyalarida janubiy yo'nalishdan kelayotgan tahdidlarni ustuvor masala sifatida ko'ra boshladilar. Afg'oniston hududidagi beqaror vaziyatning Markaziy Osiyoga ta'siri, avvalo, diniy-ekstremistik va radikal guruhlar faoliyatining faollashuvi orqali namoyon bo'ldi. Ayrim ekstremistik tashkilotlarning mintaqada davlatlariga kirib borishga urinishlari, radikal mafkuralarning tarqalishi hamda noqonuniy qurolli tuzilmalarning shakllanishi ichki va mintaqaviy xavfsizlikka jiddiy tahdid tug'dirdi. Shu bilan birga, Afg'oniston dunyodagi yirik narkotik ishlab chiqarish markazlaridan biri sifatida giyohvand moddalar kontrabandasining kengayishiga sabab bo'lib, Markaziy Osiyoni xalqaro narkotrafik yo'nalishining muhim tranzit hududiga aylantirdi. Bu esa uyushgan transmilliy jinoyatchilik, korrupsiya va noqonuniy moliyaviy oqimlarning kuchayishiga xizmat qildi. Bundan tashqari, Afg'oniston bilan chegaradosh hududlarda terroristik infratuzilma, jangari tayyorgarlik lagerlari va noqonuniy qurolli guruhlarining faoliyat yuritishi mintaqada davlatlari uchun harbiy xavf darajasini oshirdi. Mazkur tahdidlarning amaliy ko'rinishi 1999–2001-yillarda sodir bo'lgan qurolli bosqinlar va terroristik harakatlarda yaqqol namoyon bo'ldi. Binobarin, jangari guruhlarining Qirg'iziston Respublikasining Botken hududiga hamda Farg'ona vodiysi yo'nalishlariga kirib borishga urinishlari mintaqaviy xavfsizlik tizimining zaif jihatlarini ochib berdi va davlatlararo harbiy hamkorlikni kuchaytirish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu bilan birga, 1990-yillarda kuzatilgan chuqur iqtisodiy inqiroz, sobiq ittifoq davridagi xo'jalik aloqalarining uzilishi, ishsizlik

darajasining ortishi va ijtimoiy tabaqalanishning kuchayishi xavfsizlik muammolarini yanada murakkablashtirdi. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysidagi etno-demografik bosim, etnosiyosiy ziddiyatlar va resurslardan foydalanish bilan bog‘liq qarama-qarshiliklar mintaqada beqarorlik omillarini kuchaytirdi. Qirg‘iziston janubidagi etnik ziddiyatlar hamda 1992–1997-yillarda davom etgan Tojikiston fuqarolar urushi esa Markaziy Osiyo xavfsizlik makonining o‘zaro bog‘liqligini yaqqol namoyish etdi. Xususan, Tojikistondagi fuqarolar urushi mintaqada tarixdagi eng yirik ichki qurolli mojarolardan biri sifatida nafaqat milliy, balki mintaqaviy xavfsizlikka ham jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi. Ushbu mojaro transmilliy tahdidlar davlat chegaralari bilan cheklanmasligini, qurolli guruhlar, noqonuniy migratsiya va ekstremistik g‘oyalarning qo‘shni davlatlarga tez tarqalish imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatdi. Natijada Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizlikni ta‘minlashda individual yondashuvlardan ko‘ra ko‘proq mintaqaviy hamkorlik, kollektiv xavfsizlik mexanizmlari va integratsiyalashgan xavfsizlik siyosatiga ehtiyoj sezishni boshladilar.

Binobarin, 1990-yillarda Afg‘onistondagi beqarorlik, transmilliy terrorizm, narkotrafik, iqtisodiy tanazzul va ichki etnosiyosiy ziddiyatlar Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik tizimining shakllanishiga kuchli ta‘sir ko‘rsatgan asosiy omillar bo‘lib, keyingi davrlarda xavfsizlik sohasidagi institutsional hamkorlik va kollektiv mexanizmlarning rivojlanishiga muhim turtki berdi. Quyidagi ma‘lumotni alohida keltirish dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, Markaziy Osiyo mintaqasi yirik davlatlar manfaatlarini kesishgan hudud hisoblanadi. 1904-yilda siyosiy nazariyaga aylangan “Heartland” dunyo orolining (World Island) chegarasi ichida o‘rin egallagan umummiqyosdagi asosiy hudud hisoblanadi. X.Makkinder “dunyo oroli”ni markazda to‘planuvchi doiralarni tizimini qo‘llagan holda, umumsayyoraviy miqyosda hududlar ketma-ketligini belgilab uning markazida “tarixning jo‘g‘rofiy o‘qi” yoki “o‘q maydon”da joylashganini asoslashga intildi. Tahlillar natijasida shun anglash mumkinki, Markaziy Osiyo mintaqasi dunyo orolining markazida joylashganligi va uning xavfsizlik masalasi tarixiy davrlardan buyon dolzarbligini yo‘qotmaganligini anglash mumkin.

Xulosa qilib shun ta‘kidlash joizki, Markaziy Osiyoda xavfsizlik tizimining shakllanishi murakkab tarixiy, siyosiy va geosiyosiy jarayonlar ta‘sirida kechdi. Sovet Ittifoqining parchalanishi natijasida yuzaga kelgan geosiyosiy vakuum, davlat qurilishi jarayonlarining murakkabligi, chegaraviy masalalar, iqtisodiy inqiroz va etnosiyosiy ziddiyatlar mintaqada xavfsizlik muhitining beqarorlashuviga sabab bo‘ldi. Shu bilan birga, Afg‘onistondagi uzoq muddatli beqarorlik, xalqaro terrorizm, diniy-ekstremistik harakatlar, narkotrafik va boshqa transmilliy tahdidlar Markaziy Osiyo davlatlarini xavfsizlikni ta‘minlashning yangi mexanizmlarini izlashga undadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy xavfsizlik masalalari alohida davlatlar doirasida samarali hal etilishi mumkin emas. Terrorizm, ekstremizm, noqonuniy migratsiya, kiberxavfsizlik tahdidlari, transchegaraviy suv-energetika resurslari bilan bog'liq muammolar va geoiqtisodiy raqobat kabi zamonaviy xavf-xatarlar davlatlararo hamkorlikni yanada chuqurlashtirishni talab etadi. Shu sababli mintqa davlatlari o'rtasidagi siyosiy ishonchni mustahkamlash, xavfsizlik sohasida axborot almashinuvini kengaytirish, chegaralarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda kollektiv xavfsizlik institutlari faoliyatini samaradorligini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Umuman olganda, Markaziy Osiyoda barqaror va uzoq muddatli xavfsizlik tizimini shakllantirishning asosiy sharti mintqa davlatlarining o'zaro hamkorligi, kollektiv mas'uliyati hamda zamonaviy tahdidlarga nisbatan kompleks va institutsional yondashuvni izchil amalga oshirishdan iborat. Aynan shu omillar mintaqaning siyosiy barqarorligi, iqtisodiy taraqqiyoti va xalqaro maydondagi geostrategik ahamiyatini mustahkamlashning muhim kafolati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Buzan B., Wæver O. *Regions and Powers: The Structure of International Security*. Cambridge University Press, 2003.
2. Rajabov Q., Qandov B. Jahon tarixidagi sulola va davlatlar. 3. K. – T.: “O‘zbekiston”, 2015. – B. 37-40.
3. Абдуллаев, К. Региональная безопасность в Центральной Азии: вызовы и механизмы сотрудничества. – Ташкент: Академия МВД, 2019. – 268 с.
4. Allison, R. *Central Asia and the International System*. – London: Royal Institute of International Affairs, 2004. – 214 p.
5. Bohr, A. Regionalism in Central Asia: New Geopolitics, Old Regional Order. *International Affairs*, 2016, Vol. 92(2), pp. 477–495.
6. Makinder H. Geographical Pivot of History. In *Geographical jurnal*. –1904. // Перевод с англ. Элементы. Евразийское обозрение. –1996. –№7. –С.26-31